

Nutq jarayonida noverbal vositalarning pragmatik xususiyatlari

Gulrux Hasanova¹

Abstrakt

Inson nutqi ongi, dunyoqarashi uning mafkurasi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. O'z nutqi orqali inson jamiyatda ma'lum axborotni qabul qilib oladi va shu bilan birga aynan nutq orqali ma'lum axborotni uzatadi. Ana shu jarayonda nutq ta'sirchanligini oshirish uchun noverbal vositalar maydonga chiqadi. O'z navbatida, noverbal vositalar til belgilarining nutqda namoyon bo'lishida asosiy ko'makchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuni ham aytish joizki, aynan noverbal vositalarga nutq jarayonida pragmatik jarayonni yuzaga keltirishda asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Shuningdek, pragmatik axborot muloqot vaziyati orqali ham noverbal ifodalanishi mumkin. Kommunikativ vaziyatga, gapning ma'nosiga, uning qachon, qayerda va kim tomonidan aytilganiga qarab noverbal vositalarning o'rni belgilanadi. Bu xatti-harakatlar, albatta, kontekst tushunchasi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Kontekst har qanday og'zaki muloqotning muhim qismi bo'lib, u muvaffaqiyatli muloqot yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida pragmatik vaziyatni ham yuzaga keltiradi. Shuningdek, nutqda ifodalanayotgan har bir axborot makonga va zamonga tayangan holda ifodalanadi. Tilga nazar tashlaydigan bo'lsak, avvalo, aloqa va axborot uzatish vositasi sifatida shuni ta'kidlash lozimki, tilning bu funksiyasining asosiy xususiyati deyksis hisoblanadi.

Kalit so'zlar: noverbal vositalar, pragmatika, imo-ishoralar, nutqiy akt, kontekst, deyksis, kommunikatsiya, madaniy aloqalar.

Kirish

Ma'lumki, tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari, shu jumladan, muloqotning kommunikativ mazmuni, noverbal vositalar masalalari ayni zamonda o'zining boshlang'ich davrini boshdan kechirmoqda. Bu sohada hali nafaqat o'zbek tilshunosligida, balki

¹Hasanova Gulrux Xayrullayevna – mustaqil izlanuvchi, Samarqand veterinariya meditsina instituti.

E-pochta: gulruh_88@mail.ru

ORCID ID: 0000-0003-4650-4549

Iqtibos uchun: Hasanova, G.X. 2021. "Nutq jarayonida noverbal vositalarning pragmatik xususiyatlari". Ozbekiston: til va madaniyat 1: 21–40.

jahon tilshunosligida ham ilmiy tadqiqot ishlari boshlanganiga hali ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Mavjud ishlarda esa noverbal vositalarning, deyktik jestlarning global muammolari kun tartibiga qo'yilmaganini ko'ramiz. Biroq, yuqoridagilar bilan bir qatorda shuni ham aytish lozimki, tilshunoslik fanining hozirgi taraqqiyoti davrigacha muloqotning kommunikativ mazmuni, shuningdek, deyktik jestlarni, noverbal vositalarni o'rganishga tegishli bo'lgan ko'plab muammolar hal qilindi. Bu ishlarning barchasi jahon tilshunosligi qo'lga kiritgan ulkan yutuqlari bo'lib qolishi shubhasizdir. Biz ta'kidlayotgan o'rganilishi lozim bo'lgan muammolar esa, jumladan, noverbal vositalarning inson nutqi jarayonida qo'llanilishi, bunda inson omilining o'rni va bu bilan bog'liq bo'lgan kognitiv-pragmatik muammolarning tadqiqi tilshunoslar oldida turgan muhim vazifalarni tashkil etadi. Ushbu maqolada noverbal vositalarning pragmatik xususiyatlarini hamda deyktik vositalarning madaniyatlararo pragmatik ziddiyatlarini kengroq va batafsilroq yoritish maqsad qilib qo'yildi.

Madaniyatlararo noverbal muloqot jarayonida pragmatik to'siqlarni o'rganish va manbalar asosida tadqiq etish vazifa qilib qo'yildi va uni hal qilishda dastlab mavjud fikrlar tahlili amalga oshirildi. Shuningdek, nutqiy jarayonda deyktik imo-ishoralarni qo'llanilishiga oid umumnazariy qarashlar sharhi berildi. Eng muhim, noverbal vositani qo'llashda pragmatikaning muhim ahamiyati ko'rsatib berildi.

Adabiyotlar tahlili

Noverbal vositalar va ularning pragmatik xususiyatlari jahon tilshunosligida, jumladan o'zbek tilshunosligida ma'lum darajada o'rganilgan. O'zbek tilshunosligida deyksis, deyktik jestlar, nutqiy akt tushunchasi, pragmatika Sh.Safarov [2008], G.Tairova [2017], I.Xojialiyev [2001], M.Hakimov [2013], S.Rahimov [1989], S.Mo'minov, Q.Rasulov [2007], G.Mirsanova [2019], A.Kuchiboyev [2015] kabi tilshunoslar tomonidan o'rganilgan. Ularda matn kommunikativ mazmundagi so'zlarning, nutqiy akt jarayonining, deyktik jestlarning qo'llanishi, pragmatik omillarning matn kommunikativ mazmunidagi ahamiyatiga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, J. Ostin, A.Piz, Ch.Morris kabi olimlarning asarlari tahlil qilindi.

Pragmatika va noverbal vositalar

Shunisi qiziqliki, ayrim imo-ishoralar inson bilan uzoq

rivojlanish yo'lini bosib o'tib, evolyutsiya jarayonida nafaqat asl ma'nosini yo'qotgan, hatto uni teskarisiga ham o'zgartirgan. Misol uchun, tabassum kabi shubhasiz do'stona jest, dastlab, bizning ibtidoiy o'tmishimizda, aniq qarama-qarshi ma'noga ega edi (tahdid ifodasini anglatardi). Shubhasiz, imo-ishora axborot tashuvchi xususiyatga ega; u nafaqat milliy, balki ijtimoiy ham bo'lib, ma'lum bir ish faoliyati davomida shakllanishi mumkin.

Imo-ishora, yuz ifodasi, harakat, nigoh – qisqasi, axborotni uzatishning noverbal yo'llarining butun diapazoni insonning axborotli hissiy xabarni tashqi dunyoga uzatuvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu esa, albatta noverbal vositalarning inson omili bilan, demakki, pragmatik jarayon bilan bog'liqligini yana bir bor dalillaydi. Nutq jarayonidagi implitsit ifodalangan ma'no haqida gapirar ekan A. Ko'chiboyev quyidagilarni yozadi: "Lisoniy vositalar orqali ifodalangan axborotning muayyan bir tilning grammatick, sintaktik qurilishiga bog'liqligi implitsitlikning grammatick aspekti tashkil qilsa, yashirin ifodalangan ma'noning stilistik, pragmatik, kognitiv aspektlarda qiyoslab o'rganishi uning til va nutq jarayonida qo'llanilishini tadqiq qilishni taqozo qiladi. Hozirgi zamon tilshunosligida fikrning implitsit ifodalanishi nutqiy aktning aspektual, temporal, modal, personal, lokativ, posessiv aspektlarida tadqiq qilinib kelinmoqdaki, bu borada hamon bahslar davom etayotganini, ayniqsa implitsit axborot tushunchasini izohlashda yagona ta'rifning mavjud emasligi kuzatilmoqda" [Ko'chiboyev 2015, 35].

Nutqiy muloqot jarayoni, insonning nutqiy faoliyati uning rang-barang, chunonchi, ruhiy, ijtimoiy, ma'naviy, madaniy va h. bilan bog'liq holda amalga oshadi. Nutqiy muloqot jarayoni ijtimoiy va tabiiy jarayon bo'lganligi sababli, pragmatikada nutqiy muloqot jarayoni inson faoliyatining o'nlab qirralari bilan bog'liqlikda o'rganiladi. Shuning uchun sistem tilshunoslik til tizimini, til sistemasini o'rgansa, pragmatika muloqot, o'zaro fikr almashuv, kommunikatsiya, aloqa-aratashuv, so'zlashuv tizimini o'rganadi. Nutq muloqot jarayoniga tizim sifatida yondashish pragmatikaning asosiy tadqiq manbai va usulidir. Pragmatika muayyan vaziyatda aytilgan informatsiyaning tinglovchiga ta'sirini o'rganadi.

Ta'kidlash lozimki, lingvistik pragmatika so'zlovchi ijtimoiy faoliyatining nutqdagi real ifoda masalalarini qamrab oladi [Hakimov 2013, 8].

Pragmatika tilshunoslikda til belgilarining nutqda ishlatalishi va ishlashini belgi va uning foydalanuvchisi o'rtasidagi munosa-

batlar nuqtayi nazaridan, shuningdek, nutq aktining ishtirokchilari xususiyatlariga bog'liq bo'lgan til birliklarini yaratish xususiyatlarini o'rganadigan tilshunoslik sohasidir.

Bu sohaning asosiy masalasi turli til sathlarida, ya'ni ularning nutqda qo'llanishining turli sharoitlarida turli til komponentlarining leksik ma'nosini aniqlashdan iborat. Bunda asosiy obyekt – nutq aktlari bo'lib, ular asosida nutq aktlari nazariyasining tezislari atroflichcha o'rganiladi. Boshqacha aytganda, pragmatikada obyektiv nutq komponentlarining muloqot vaqtida qo'llaniladigan usullari va ularning o'zaro ta'siri o'rganiladi.

Nutq aktlari haqida gapirar ekanmiz J.Ostinning nazariyasiga to'xtalish lozim bo'ladi. 1950-yillarning o'talariga kelib Jon Ostin nutq aktlari nazariyasini shakllantirdi, unda aloqa birligi endi faqatgina bayon emas, balki savol, tushuntirish, tavsif va boshqalarni ifodalash bilan bog'liq bo'lgan nutqiy akt ekanligini ta'kidladi va bu jarayon umumiy qabul qilingan tamoyillar va qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi. Suhbatdosh bilan bevosita muloqot vaziyatida shakllangan jarayon nutq aktlari bilan bog'liq bo'ladi.

Ostin har qanday hukm ma'lum bir faoliyat bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Shuning uchun u jumlani performativ va konstativ shakllarga bo'lishga qarshi chiqdi. Shu bilan birga bu fikrini to'ldirish uchun olim teranroq lingvistik tasnif yaratadi va unda uch darajani belgilaydi: lokativ, illokutiv va perllokutiv.

Lokutsiya-so'zlashish akti, bayonotning aytilishi – bu bosqichda so'zlovchining niyatları va bajarilgan harakatning muvafaqiyati hisobga olinmaydi.

Illokutsiya adresatga ta'sir etish maqsadida aytildigan bayonnoması – bu bosqichda so'zlovchining kommunikativ niyati amalga oshadi.

Perllokutsiya-nutqiy aktni bajarish natijasida erishilgan ta'sir, ya'ni so'zlashish darajasining amalga oshishi adresantga bog'liq bo'lgan bosqich.

Eng batapsil tarzda, J.Ostin jumlaning illokutiv jihatini tekshiradi va illokutivlik kuchi tushunchasini fanga kiritadi. Uningcha, barcha illokutiv fe'llar preformativ tarzda qo'llanilmaydi. Misol uchun, *haqorat qilmoq, maqtanmoq* va boshqa shunga o'xshash fe'llar preformativ emas. Chunki biz "Men seni haqorat qilaman" iborasini aytib, odamni haqorat qila olmaymiz, zero haqorat aktini amalga oshirish uchun boshqa bir qator bayonotlarni aytish lozim bo'ladi [Austin 1969].

Nutq aktlari bevosita yoki bilvosita bo'lishi mumkin.

To'g'ridan-to'g'ri nutq akti bevosita so'zlashning illokutsion maqsadini ifodalaydi:

Ertaga beshda kelishingizni so'rayman.

Bilvosita nutq akti – bilvosita, boshqa illokutsion aktni amalga oshirish orqali hosil bo'ladigan illokutsion aktdir.

Nutq aktlarida so'zlovchining psixologik holati uning vaziyatga munosabatida aks etadi. Aynan deyktik vositalar, imo-ishoralar xohish, ishontirish, afsuslanish kabi holatlarga qo'shimcha ta'sir kuchini yuklashi sir emas.

Ma'lumki, bir psixologik holatning ifodasi nutqiy aktlarning yanada yaqqol ko'zgusi sifatida xizmat qila oladi. Bu esa o'z navbatida turli illokutiv aktlarni o'zida qamrab oladi: ishontirish – dekloratsiya, tushuntirish, ta'kidni; maqsad – va'da, qasamyodni; po'pisa – buyruq, istak va h. k.larni ifodalashi mumkin.

Umuman olganda, so'zlovchi o'z nutqi jarayonida ishlata-digan imo-ishoralar nutqning yoki uzatilayotgan axborotning emotsiyonalligini oshirishga xizmat qiladi. Emotsiyalar esa adresatning ham, adresantning ham o'zaro pragmatik munosabatlariga ijobiy ta'sir etadi. Boshqacha aytganda, emotsiyalar so'zlovchining o'z nutqiga bo'lgan munosabatini aks ettirishga yordam beradi. Natijada muvaffaqiyatli illokutiv akt yuzaga chiqadi.

Bizningcha, muvaffaqiyatli illokutiv akt yuzaga kelishi uchun og'zaki nutq bo'lishi shart ham emas. Zero, qo'l harakatlari, imo-ishoralar orqali ham illokutiv aktning muvaffaqiyatli chiqishiga erishish mumkin:

1. *Qushbegi javob berish o'rniغا maktubni olib ko'rpancha ostig'a yashirdi va Kumushbibini tanbihladi: "Majlisda manim ruxsatimdan boshqa so'zlashning otangiz bilan eringizning o'limlarini tilashingizdir, tushundingizmi?" Kumush qabul ifodasini bergandan so'ng qushbegi dahlizda qarab turg'an qo'rbosegiga "Kirsinlar!" dedi (A. Qodiriy. O'tkan kunlar).*

2. *Otabek kulimsiradi:*

- Eshitdim...

- *O'sha bekning haqiga eshitgan kunimdan beri duo qilib kelaman...*

Zaynab so'radi:

- *Sizlarda qanday dushmanlig'i bor ekan?*

Otabek "endi nima deysan" degandek qilib Kumushga qaradi.

Keltirilgan misollarning birinchingisida qushbegining verbal ifodali savoliga Kumushning noverbal (qabul ifodasini bergandan so'ng) javob qaytarishini, bu esa, o'z navbatida suhbatdoshga o'z

maqsadini yetkazib, kommunikativ niyatni yuzaga chiqishi bilan xarakterlanishini kuzatish mumkin.

Nutq so'zlovchining nafaqat til vositalardan, balki noverbal vositalardan foydalanish jarayoni va shunday jarayon natijasida yuzaga keladigan hodisa nutqning kommunikatsiya maqsadi va sharoitiga qarab deyktik vositalardan muvofig'i saylab ishlatalishini talab qiladi. Buni biz yuqorida berilgan ikkinchi misolda ko'rishimiz mumkin. Birinchi misolda biz qabul ifodasini berilganini ko'rsak (bu bosh irg'ash, qo'lini ko'ksiga qo'yib, yengil ta'zim qilish kabilar bo'lishi mumkin), ikkinchi misolda nigoh kontaktini kuzatishimiz mumkin. Boshqacha aytganda, ikkinchi misolda "*endi nima deysan*" degan jumlani biz Otabekning ko'z qarashlaridan uqib olishimiz mumkin.

Aytish joizki, paralingvistik vositalar nutqda inson ichki ruhiy kechinmalarini ifoda etishda asosiy noverbal muloqot komponenti o'rnida foydalanyladi. Axborot imo-ishoralar tasvirlar, yuz ifodalari, va pantomimika va h. k. lar orqali almashiladi. Bunday holda, inson tanasi "muloqot" vositasi sanaladi. Bu holda tana juda katta axborot almashish quroliga aylanadi. Shu bilan birga, kishilar o'rtasidagi kommunikativ munosabatlarning yuzaga chiqishi verbal hamda noverbal ifodalarning qo'llanishi bilan amalga oshiriladi.

Bu yerda noverbal muloqotning eng muhim xususiyati shundan iboratki, u insonning barcha sezgi organlari yordamida amalga oshiriladi, ularning har biri aloqa kanalini tashkil etadi va har biri o'zicha pragmatik vaziyatni yuzaga keltiradi.

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, ayrim jumlalar faqat muayyan kontekst bilan bog'liq bo'ladi. Bu haqida gapirar ekan, professor M.Hakimov quyidagilarni yozadi: "Ayrim jumlalar borki, undan anglashilgan obyektiv mazmun (diktal ma'no) butunisicha faqat muayyan nutqiy vaziyat, kontekst bilan bog'liq bo'ladi. Agar bu jumlalar shu kontekstdan yoki nutqiy vaziyatdan uzib olinsa, o'sha obyektiv mazmun noto'g'ri bo'lib chiqadi. Masalan, "*Hamma vaqtini chog' o'tkazmoqda*" jumlasidan anglashilgan "*Hammaning xursandligi*" faqat konkret nutq vaziyati, nutqiy qurshov bilan bog'liqdir. Chunki dunyodagi barcha odamlar doimo vaqtini chog' o'tkazishi mumkin emas. Kimdir nimadandir tashvishlanadi, ozor chekadi. Kimdir kasallikdan azob tortadi va hokazolar" [Hakimov 2013]. Olimning fikriga qo'shilgan holda shuni aytish mumkinki, Bunday nutqiy vaziyat qurshovida nafaqat verbal, balki noverbal vositalar ham, jumladan, imo-ishoralar, mimikalar ham kela oladi. fikrimiz dalili uchun quyidagi misolni keltirish mumkin:

– *Kelin-kuyov o'ynaymiz, – dedi. – Salima, sen kelin. Kuyov kim bo'lzin? Adhammi?*

Salima bosh chayqadi. Akbar Azizni ko'rsatgan edi, qizcha yana bosh chayqadi. Shunda Aziz:

– *Akbarmi? – deb so'radi. Salima ohunikiday chiroyli ko'zlarini yerga qaratib sukut saqladi. Bu uning rozi bo'lgani edi. Aziz behi gulining kichik bir shoxchasini sindirib, Akbarning bejirim sallachasiga jig'a qilib qadadi. Kelin-kuyov yonma-yon yerga qarab bog'yo'lkasidan kela boshlashdi. Ikki ko'kaldosh ularning ikki yonida turib yor-yor aytishdi* (P. Qodirov. "Humoyun va Akbar").

Keltirilgan misolda Salimaning chiroyli ko'zlarini yerga qaratib sukut saqlashi misolda berilganidek, uning rozi bo'lgani edi. Ammo bu harakat har doim ham rozilik alomati bo'lavermaydi. Ayrim boshqa vaziyatlarda bu harakatni aybni tan olish, noxush xabarni ayta olmay ikkilanish kabi ma'nolarni ham ifodalaydi. Bu esa pragmatik vaziyatni keltirib chiqaradi.

Madaniyatlararo noverbal muloqotda pragmatik muvaffaqiyatsizliklar

O'zaro madaniy aloqalar va o'zaro madaniy aloqalarning o'ziga xos xususiyatlari – bu o'zaro madaniy moslashuvning muvaffaqiyatli omillari bo'lib, uning muhim roli ushbu muammo sohasidagi turli nazariy tadqiqot yo'nalishlari vakillari tomonidan qayd etilgan. Noverbal xulq-atvordagi o'zaro madaniy farqlar ijtimoiy psixologiyada keng o'rganilgan. Ko'plab tadqiqotchilar noverbal muloqotning turli jabhalaridagi turli etnik guruuhlar vakillarining muloqotidan olingan misollarni tahlil qilganlar. Qizig'i shundaki, o'zaro madaniy muloqotda, masalan, chet tilini bilmaslik yoki yomon bilishda ko'pincha aloqa to'siqlarini bartaraf etish uchun og'zaki bo'lмаган aloqa vositalari (birinchi navbatda imo-ishoralar, yuz ifodalari, pantomimika) qo'llaniladi. Shu bilan birga, aloqa to'siqlarini yaratadigan noverbal xulq-atvordagi o'zaro madaniy farqlar ko'pincha tushunmovchiliklarga olib keladi. Noverbal aloqaning muloqotdagi, xususan, madaniyatlararo muloqotdagi o'rnini belgilovchi omillardan biri muayyan madaniyatga xos "kontekstual muloqot darajasi"dir. Etnik aloqalardagi qiyinchiliklar, to'siqlar va hatto ziddiyatlarning yana bir manbai etnik stereotiplar va xurofotlardir.

Ayrim madaniyatlarda, xususan, rus, fransuz va yapon madaniyatlarda kontekstning o'rni juda katta bo'lib, ma'lum hollarda aytilganlarning ma'nosi teskarisiga o'zgarishi mumkin.

Shuning uchun bunda noverbal aloqa omillari alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Biznes suhbatlarda, misol uchun, ruslar amerikaliklarga nisbatan bir-biriga yaqinroq keladi. Boshqacha aytganda, ruslar uchun ijtimoiy masofa amerikaliklarga nisbatan kamroq, va ularning shaxsiy yoki yaqin masofasi bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Ijtimoiy masofaning bunday qisqarishi amerikaliklar tomonidan axloq qoidalarining buzilishi sifatida talqin qilinishi mumkin. Masofaning uzayishi esa rossiyalik odamlar munosabatlarida sovuq muomala, rasmiyatchilik sifatida qaraladi. Bir necha uchrashuvlardan so'ng bu noto'g'ri talqin odatda yo'qoladi. Biroq, avvaliga, bu vaziyat suhbatda taranglikka olib kelishi mumkin.

A. Piz konferensiyalardan birida guvohi bo'lgan qiziqarli sahnaning tavsifini beradi. Amerikalik va yaponiyalik odam gaplashib, xona bo'ylab sekin harakat qilishadi. Amerikalik rasmiy suhbat davomida oraliq masofa 90 sm bo'lishi kerak, deb hisoblaydi; shuning uchun suhbat davomida u har doim bir qadam orqaga chekingan, me'yoriy masofa 20-25 sm.ni tashkil qilgan yaponiyalik uchun esa amerikalikning saqlagan masofasi uzoq sanalgan, shu sababdan ham u doimiy ravishda amerikalikka yaqinlashavergan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, turli millat vakillari gapirayotganda quyidagi masofalarni afzal ko'radilar:

Yaqin masofa – arablar, yapon, janubiy amerikaliklar, fransuzlar, yunonlar, qora tanlilar va Shimoliy Amerikada yashovchi ispanlar, italiyaliklar, ispanlar;

O'rtacha masofa – ingliz, shved, shveysariya, nemis, avstriya;

Uzoq masofa – Shimoliy Amerikaning oq tanli aholisi, avstraliyaliklar, yangi zelandiyaliklar.

Imo-ishora, ramzlardan foydalanish eng ko'p tushunmov-chiliklarga sabab bo'ladi. Bunday imo-ishoralar ko'pincha suhbatdosh tomonidan aytilgan tilni bilmaganlarida ishlatiladi, ammo ayrimlar imo-ishoralarning ma'nosi hamma joyda bir xil deb hisoblab, o'zlarini tushuntirishga harakat qilishadi. Bu esa, o'z navbatida, chuqur anglashilmovchilik, kulgili bir holga olib keladi, va ba'zan noqulay pragmatik vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Masalan, mamlakatimizda, bosh barmoq yuqoriga ko'tarilsa "zo'r" ma'nosini anglatadi, Gretsiyada esa u "ovozingni o'chir" degan ma'noni ifodalaydi. Bizda ko'pincha ko'rsatkich barmoq yuqoriga ko'tarilsa, "Jim bo'l" buyru'ini ifodalaydi. Shu bilan birga bu ifoda ba'zida "Diqqat!", Germaniyada "Hammasi yaxshi", Amerika maktablarida esa darsga javob berish uchun ijozat so'rash ma'nosida ham kelishi mumkin. Diniy nuqtayi nazardan olib qaralganda esa ushbu ifoda

musulmon xalqlarida “Allohdan o’zga Illoh yo’q” degan ma’nosini anglatadi (1-rasm).



1-rasm.

Shuning uchun, agar siz imo-ishoralarning aniq ma’nosini bilmasangiz, chet elliklar bilan muloqot qilishda ularni butunlay chiqarib tashlash yaxshidir. Chunki bu imo-ishoralar suhbatdosh tomonidan tushunilmaydi yoki boshqacha ma’noga ega bo’lib chiqadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, har qanday madaniyatda nosamimiylilik imo-ishoralari ko’pincha chap qo’l bilan bog’liq. O’ng qo’l kerakli narsani qilsa, chap qo’l aksariyat hollarda egasining yashirin his-tuyg’ularini berib, xohlagan narsani qiladi. Shuning uchun, agar siz bilan suhbatda suhbatdosh chap qo’li bilan imo-ishora qilsa, unimani o’ylayotganini aytmasligi yoki bo’layotgan voqealarga salbiy munosabatda bo’lishi ehtimoli yuqori. Bunday hollarda suhbat mavzusini o’zgartirishimiz yoki uni butunlay to’xtatishimiz kerak bo’ladi.

Ba’zan imo-ishoraning bir oz o’zgarishi ham uning ma’nosini butunlay o’zgartirishi mumkin. Angliyada ikki barmoq (ko’rsatgich va o’rta barmoqlar) ishorasi, yuqoriga ko’tarilgan bo’lsa ikki xil ma’no anglatadi. Agar bu ishorada kaft suhbatdoshta o’girilgan bo’lsa, bu dahshatli haqoratdir. Agar kaft o’ziga o’girilsa, bu “g’alaba” (victory) so’zining birinchi harfidir.

Ammo shuni ham aytish joizki, ko’plab madaniyatlar uchun umumiyl bo’lgan noverbal xatti-harakatlar borligini ham inkor etib bo’lmaydi. Shu bilan birga, turli mamlakatlarda odamlar o’z noverbal xatti-harakatlarini qurish haqida o’z qoidalarini ishlab chiqishadi. Ushbu qoidalar har qaysisi individual xarakterga ega bo’lishi ham mumkin. Chunki, bir xalq doirasida ham ayrim imo-ishoralar turli vaziyatlarda turlicha ma’no kasb etishi mumkin. Masalan, bizda qo’limizni tepaga ko’tarib silkitsak, vaziyatga qarab bu ishora xayr ifodasini ham, salom ifodasini ham berishi mumkin. Ayrim hollarda

esa "yuk" degan ma'noni ham anglatishi mumkin. Yoki boshni silkitish ham inkor, ham ikkilanish ma'nosida kelishi mumkin. Bu esa noverbal vositalarning ham omonimik xususiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Albatta, barcha xalqlarda deyarli bir xil bo'lgan imo-ishoralar, ifodaviy signallar mavjud (tabassum, g'azabli qarash, qoshlarni qoqish, boshingizni chayqash va hokazo.). Biroq, faqat bir millat tomonidan qabul qilinadigan og'zaki bo'limgan vositalar, odatlar juda ko'p. Masalan, rasmiy uchrashuvlarda kelishuv amalga oshganda odatda qo'l berishadi. Fransiyada, rasmiy uchrashuvlarda qo'l berib kelishuvni mustahkamlashda, bu ishoraning ko'p turlari borligini inobatga olish zarur (sovuz, beparvo, marhamatli, issiq, do'stona). Fransuzlar, odatda, muzokaralar uchun juda ehtiyyotkorlik bilan tayyorgarlik ko'radi, biznes takliflarining barcha jihatlari va oqibatlarini yaxshilab o'rganadi. Ular o'z manfaatlarini himoya qiladilar, savdolashmaydilar, qattiq muzokara qiladilar, shu bilan birga, sheriklari o'z pozitsiyasini birdan o'zgartirganda yoqtirmaydilar.

Umuman olganda, inson muloqotda besh xil belgi tizimidan foydalanadi: *so'zlar, intonatsiya, ovoz tembri, imo-ishora va energiya impulsi*. Birinchi uch an'anaviy tilshunoslik vakolatiga tegishli, to'rtinchisi – noverbal aloqa, beshinchisi esa – ekstralivingistikaga oid.

Ko'pgina imo-ishoralar ong bilan idrok etmagan holda insonning kayfiyatini va fikrlarini to'liq yetkazadilar. Agar ehtiyyotkorlik va qiziqarli suhbatdosh sifatida qabul qilinadigan bo'lsangiz, u holda imo-ishoralar va yuz ifodalarini tushunishingiz kerak. Boshqalar tomonidan suhbatdoshning ta'lim darajasini baholashda yuz ifodalari, imo-ishoralar muhim rol o'ynaydi. Ular esa, o'z navbatida, turli pragmatik vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Pragmatik axborot muloqot vaziyati orqali ham noverbal ifodalaniishi mumkin. Ammo bunday vaziyat ham kontekstga va tinglovchingning appersepsion (idrok) bazasiga bog'liq bo'ladi [Ko'chiboyev 2015, 77].

Deyktik vositalarning pragmatik axborotni yetkazish-dagi roli

Chaqaloq tug'ilgandan boshlab, yig'lash orqali odamlar bilan muloqot qilishni boshlaydi, ota-onalarga sut kerakligi yoki uning tagligini almashtirishni xohlashi haqida xabar berishda davom etadi. Aloqa inson hayotining muhim va asosiy yo'nalishi bo'lib, u orqali

kishilar o'z fikrlari, qarashlarini baham ko'rishadi; g'oya, bilimlarni uzatish, maqsadlarga erishish, boshqalarga ta'sir qilish va boshqa ko'p shunga o'xshash funksiyalarni bajarishadi. Aniqroq aytganda, muloqot inson hayotida birinchi darajada turadi deb ta'riflash mumkin. Kommunikatsiya orqali shaxslar ma'lumot almashish uchun ramzlar, belgilar va xatti-harakatlardan foydalanadilar. Kommunikativ vaziyatga, gapning ma'nosiga, qachon, qayerda va kim tomonidan aytilganiga qarab noverbal vositalarning o'rni belgilanadi. Bu xatti-harakatlar, albatta, kontekst tushunchasi bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Kontekst suhabatdagi rollar bilan bog'liq. Boshqacha qilib aytganda, kontekst ma'ruzachi va adresat o'rtasidagi munosabatni anglatadi. Masalan, o'qituvchining hamkasblaridan iltimos qilish usuli uning rafiqasidan qilgan iltimosdan farq qiladi. Aslida so'zlarni tanlash, jumla tuzilishi va rasmiy kontekstning yuzaga kelishi norasmiy ijtimoiy kontekst bilan belgilanadi. Bu esa ijtimoiy kontekst tushunchasini keltirib chiqaradi. Shu sababli, kontekst har qanday og'zaki muloqotning muhim qismidir va u muvaffaqiyatli muloqot yuzaga kelishi uchun asosiy vazifa bajaradi. Bu esa, o'z navbatida pragmatik vaziyatni ham yuzaga keltiradi.

Hozirda pragmatikaning zamonaviy tushunchasi semiotikani uch qismga – sintaksis, semantika va pragmatikaga ajratgan Ch.U.Morris tomonidan berilgan ta'rifga asoslangan. Uning fikricha, sintaksis belgilarning bir-biriga munosabatini, semantika belgilarning obyektlarga munosabatini o'rganadi, pragmatika sohasida esa bu belgilarni izohlovchi so'zlovchilarining belgilariga munosabat bildiriladi. Bunday bo'linishni uchta o'zaro bog'langan o'qlar ko'rinishida ifodalash mumkin. "Sintaktik o'qda elementlar o'z vaqtida tartibga solinadi, semantik o'qda elementlar bir xil sintaktik yoki pragmatik turdag'i birliliklarning kontrasti asosida tanlanadi [Morris 1970, 34].

Ayni paytda pragmatikaning asosiy ta'rifi pragmatik tadqiqot obyektiga aynan mos kelmaydi. Agar ilgari pragmatika asosan til va nutqni nutq faoliyati, nutq materiali sifatida o'rganish, keng ijtimoiy kontekstda inson faoliyati aspektida tilni o'rganish bilan shug'ullangan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan vaziyat o'zgardi. Ch. Morris ta'rifiga nisbatan zamonaviy pragmatikaning real chegaralari ancha kengaydi. Bugungi kunda pragmatika til va muloqotning kognitiv, ijtimoiy va madaniy tadqiqotlarini anglatadi. Umuman olganda, pragmatikani uch sohaga ajratish mumkin: *indeks ifodalari, bilvosita nutq aktlari va nutq aktlari*.

Pragmatika tildan foydalanish jarayonida inson faoliyati bilan bevosita bog'liq. Pragmatikaning markaziy kategoriyalari quyidagilardir:

- so'zlashuvning mavzusi yoki ma'ruzachi;
- tinglovchi;
- ma'ruzachi va tinglovchi birgalikda yoki muloqot ishtirokchilari o'tasidagi munosabatlar;
- og'zaki kontekst;
- nutq harakati bilan bog'liq kommunikativ vositalar bilan shakllangan kontekst: yuz ifodalari, imo-ishoralar;
- nutq vaziyati va nutq harakati holati yoki muloqot holati;
- keng ma'noda kontekst og'zaki va og'zaki bo'lмаган muloqot vositalari, amaliy va aqliy harakatlar.

Shu bilan birga, zamona viy tilshunoslikda noverbal vositalarning pragmatik xususiyatlarini tadqiq etishga lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika va boshqa sohalarda keng e'tibor qaratilmoqda. "Pragmatika lingvistik ko'lamda so'zlovchining borliqqa; xabarning mazmuniga; tinglovchiga bo'lgan munosabatini ifodalar ekan, muloqot sharoitida namoyon bo'ladigan kommunikativ mazmun (ishonch, ishonchsizlik, qat'iyat, qat'iyatsizlik, qo'rquv, gumon, hadik, xursandlik va boshqalar), lug'aviy birliklardan foydalanish, noverbal vositalarni qo'llash kabi unsurlarning ahamiyatini qayd etadi va kommunikantlar haqida qo'shimcha xabar beradi. Til birliklarining pragmatik vazifasi kontekst, nutqiy vaziyat, so'zlashuvchilarining til ko'nikmalari va nutq obyekti haqidagi umumiy bilimlari bilan bog'liq tarzda yuzaga chiqadi. Nutqiy muloqotda pragmatik mazmunning oydinlashuvida nutqiy vaziyat, so'zlovchi va tinglovchining aqlan va ruhan yaqinligi kabi omillar ham ishtiroketadi. Muhimi, ushbu mazmun voqelanishini ta'minlovchi asosiy omillar nutqda faollashadi" [Mirsanova 2019, 12].

Nutqda ifodalanayotgan har bir axborot makonga va zamonga tayangan holda ifodalanadi. Tilga nazar tashlaydigan bo'lsak, avvalo, aloqa va axborot uzatish vositasi sifatida shuni ta'kidlash lozimki, tilning bu funksiyasining asosiy xususiyati deyksis hisoblanadi. Deyksisni o'rganishga pragmatik yondashuv deyksis va pragmatika o'tasidagi munosabatlarga e'tibor qaratadi. Ma'lumki, deyktik leksika, avvalo, egosentrik bo'lgani uchun, uning talqinida asosiy o'rinni pragmatikaning markaziy kategoriysi bo'lgan nutqiy subyekt siyomosi egallaydi.

"Deyksis" so'zining asl ma'nosini yunoncha "ko'rsatish, ishora" bo'lib, ilmiy adabiyotlarda "voqelikka ishora, ko'rsatish" ma'nosida

ishlatiladi. Ko'rsatish, ishora vazifasini bajaruvchi birliklar deyktik iboralar yoki "indikatorlar" atamasi bilan ham yuritiladi. Bu turdag'i iboralarni muloqot ifodadorligini ta'minlovchi ekspressiv, emotiv, baholovchi komponentlar deb ham atash mumkin. Shuningdek, deyktik iboralar muloqot vaziyatida ro'y beradigan hodisa, uzatilayotgan axborotning ma'lum qismlarini alohida ta'kidlash, baholash, bu orqali axborot ta'sirini oshirish uchun ham xizmat qiladi" [Ko'chiboyev 2015, 93].

Ta'kidlash lozimki, "deyksis" atamasi antik davrlardan ma'lum. Ammo zamonaviy tilshunoslikda bu tushuncha nemis olimi K.Brugmannning e'tiborini birinchilardan bo'lib tortdi. Brugmannning ishiga o'z navbatida taniqli nemis psixolog va tilshunosi K.Byuller asoslangan. "Til nazariyasi" deb nomlanuvchi kitobida u deyksis to'g'risida ko'plab ma'lumotlarni keltiradi. Byuller birinchilardan bo'lib deyksisdan olingan ikki hodisani aniq ko'rsatib berdi: anafora va Deixis am Phantasma – deyktik markazning makon va zamonda ruhiy uzatish fenomeni.

Semiotik an'ana 1940-yilda ko'rsatish olmoshlarini so'z va obyekt o'rtasidagi bevosita aloqani yaratadigan indeksal belgilar deb atashni taklif qilgan Ch.Pirs bilan bog'liq. Deyksisning o'rganishning yana bir an'anasi 1922-yilda til birliklarini xarakterlash uchun o'z konsepsiyasini taklif qilgan O. Yespersendan kelib chiqadi.

Aytish lozimki, deyktik vositalar kommunikativ jarayonda uzatilayotgan axborotga ma'lum darajada ifoda ta'sirchanligini oshirish maqsadida ham qo'llaniladi.

Ma'lumki, deyksis tushunchasi markazida inson obrazi turadi. Bu ayrim adabiyotlarda shaxs deyksisi deb ham yuritiladi. Xususan, A.Ko'chiboyev shaxs deyksisi haqida quyidagilarni yozadi: "Birinchi shaxs – muloqotdagi so'zlovchining o'rniqa ishora, "o'zini ko'rsatishi, eslatishi"ning lisoniy ifodasıdir. Bunday ifoda matnda muallif fikri, personaj fikri sifatida voqelanadi. Ikkinci shaxs – tinglovchi yoki kitobxonning lisoniy belgilanishi, hamda uchinchi shaxs muloqotning bevosita ishtirokchisi bo'limgan shaxsga bildiriladigan munosabatlarning ishorasıdir" [Ko'chiboyev 2015, 94].

Mazkur fikrga qo'shilsa bo'ladi. Chunki, ayrim nutqiy vaziyatlarda aslida ifoda etilayotgan tushuncha o'z nomi bilan aytilmay, o'sha tushunchaga ishora qiluvchi so'z qo'llaniladi. Fikrimiz dalili uchun quyidagi misolga yuzlansak:

Najmi Soniy shayboniyzodalarni bartaraf qilgandan keyin Boburni ham hokimiyatdan chetlatishi va Samarqand taxtiga boshqa ishonchli odamni o'tqazib, Movarounnahrda qizilboshlар hokimiyatini

uzil-kesil barqaror qilishi kerak edi (P.Qodirov. Yulduzli tunlar).

Ko'rinish turibdiki, bu yerda qizilboshlar oti orqali Shoh Ismoil harbiylari o'n ikki qizil yo'lllik matodan o'rab yuradigan sallaga ishora qilinayapti.

Shu bilan birga aytish joizki, nutq jarayonida ko'pincha qo'llanadigan *men* olmoshi o'rniga *biz* olmoshining qo'llanishi ham ko'plik ma'nosidan tashqari kamtarlik ma'nosida ham keladi. Mazkur olmoshning qanday ma'noda kelishi esa nutqiy-pragmatik vaziyatda aniq bo'ladi:

– *Bek janoblari, siz bilan biz asli mo'g'ul urug'idanmiz. Barloslarning Farg'ona viloyatida shuncha vaqt hukm surganlari yetar* (P. Qodirov Yulduzli tunlar).

Keltirilgan misoldan ko'rinaldiki, *biz* so'zi bu yerda *men* o'rnida qo'llanilayotgani izoh talab qilmaydi. Shaxs deyksisi so'zlashuvda qatnashuvchilarining rollarini olmoshlar yordamida aniqlar ekan, *men* ma'ruzachi yoki birinchi shaxs uchun, *siz* tinglovchi, adresat yoki ikkinchi shaxs uchun ishlatalidi. Uchinchi shaxs u va bu na ma'ruzachi va na tinglovchi uchun, balki nutq ishtirokchilari uchun qo'llaniladi.

Shaxs deyksisini ifodalovchi vositalar haqida gapirayotib, til tizimida uchinchi shaxs olmoshi ham alohida guruhga ajralishini unutmaslik lozim. Bu guruhdagi olmoshlar semantik va kommunikativ mohiyati jihatidan boshqalaridan tubdan farq qilishi allaqachon qayd etilgan. Bilamizki, birinchi va ikkinchi shaxslar bevosita muloqot ishtirokchilaridir va "men", "sen" guruhlaridagi olmoshlar "kommunikativ shaxs"larni ifodalaydi. Uchinchi shaxs olmoshlari esa bunday xususiyatga ega emas, ularning referenti – muloqotning bevosita ishtirokchilari bo'limgan "nokommunikativ shaxs"lardir.

Kommunikativ faoliyat uchun makon va zamon hodisalari muhim ahamiyatga ega. Har bir voqeа tinglovchi tomonidan makon va zamonda anglashiladi. Tinglovchi muayyan voqeа-hodisani qanday makon va qay zamonda sodir bo'lganligini bilishga harakat qiladi. Bu esa bevosita pragmatik jarayon bilan bog'liq bo'ladi hamda makon va zamon deyksisida o'rganiladi. Agar uzatilayotgan axborot uning sodir bo'lishi paytiga, davriga ishora qilsa, bunday deyksis zamon yoki temporal deyksis deb ataladi.

– *Badaxshonda, "Vaqoi"'ni so'ragan eding, – dedi Bobur Humoyunga. – Mana, yozib tugatdim. Ol* (P. Qodirov. Yulduzli tunlar).

Ko'rinaldiki, keltirilgan matnda Humoyunning Badaxshonda "Vaqoi"'ni so'ragani bayon qilingan. Bu o'rinda Badaxshon so'zi makon

deyksis vazifasini bajarayapti. Ammo shu bilan birga, ayni paytda zamon deyksisini ham aynan shu so'z bajarayotganini ko'rishimiz mumkin. Chunki bu o'rinda Humoyunning kitobni Badaxshonda so'ragani voqeа gapirilayotgan paytga nisbatan ancha oldin sodir bo'lganligini ham ko'rsatayapti. Bu esa, o'z navbatida, pragmatik vaziyatni yuzaga keltiryapti.

Yuqorida aytigalar bilan bir qatorda, emotsiyal deyksisni ham ta'kidlab o'tish lozim bo'ladi. Adabiyotlarda uni emotiv deyksis deb ham atashadi. Odatda emotivlikning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatishadi: *lingvistik, paralingvistik va nolingvistik*.

Emotiv deyksis haqida gapirar ekan Sh.Safarov quyidagilarni yozadi: "Dastlab unutmaslik kerakki, emotivlik har qanday nutqiy harakat mundarijasiga xosdir. Zero, so'zlovchi kechayotgan voqeа-hodisa idrokida betaraf bo'lib qola olmaydi hamda nutqiy bayonida, axborot uzatishda o'z hissiyotini izhor etishga majburdir. Ammo hissiyot darajasi har xil, uning miqdori tinglovchiga (o'quvchiga) qaysi darajada ta'sir o'tkazish va qanday faoliyatga undash maqsadi bilan belgilanadi. Lisoniy faoliyatda emotsiyonallik va ratsionallik (mulohazakorlik) munosabati nisbatini qadrlash talab qilinadi. Emotsionallikning nutqiy faoliyatda turli ko'rinish va darajalarda ifodalanishi his-tuyg'uni izhor etish maqsadi, modallik mazmuni, tonallik (ohangdoshlik) kabi nutqiy birliklar mazmun doirasini shakllantiruvchi hodisalar ishtirokida hosil bo'ladi" [Safarov 2008, 99].

Fikrimizcha, hissiyotlarning lingvistik tavsifi ma'lum an'anaga ega. Umuman olganda, tilshunoslar bu hodisani o'rganishning mumkin bo'lgan ikki yo'nalishini qayd etadilar: hissiyotlardan ularni ifodalovchi til vositalarigacha, til vositalaridan esa hissiyotlarga. Ikkinci yo'l yanada samarali va haqiqiy deb e'tirof etiladi, chunki emotivlikning yagona nolingvistik nazariyasi mavjud emas. Emotivlik orqali his-tuyg'u va hissiyotlarni ifodalash vositalari kabi til birliklarining xususiyatini tushunamiz. Hissiy hodisalar shaxs va atrof-muhit o'rtasidagi munosabatni ifoda etadi, bu muqarrar ravishda ehtiyojlarni qondirish, maqsadlarga erishishni baholashga olib keladi. His-tuyg'ular, albatta, ijobiy va salbiy turlarga bo'linadi. Mazkur his-tuyg'ularni ifodalashda inson beixtiyor tovushlar, to'xtashlar, duduqlanish, yo'tal, nidolar kabi paralingvistik vositalarni qo'llaydi. Bunga nutqning atrofidagi uni bezovchi, kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar, nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotgani ham kiradi. Aynan ana shu emotsiyalar orqali nutqiy vaziyatda biz pragmatik xususiyatlarni kuzatamiz.

Masalan, suhbat jarayonida so'zlovchi barchaga: "Rayis buva xo'rozda!" dedi. Boshqa bir suhbatdosh bunga javoban bosh silkib, kinoya aralash g'alati ohangda cho'zib "Haaa" deb qo'ydi. Ko'rindiki, bunday g'alati ohangda aytilgan "Haaa" ifodasi atrofdagilar uchun turli xil ma'no kasb etishi mumkin. Kimdir uni "Rayis buva tezda qizishib ketadigan janjalkash odam" deb tushunsa, boshqa birov "Rayis buvaning ayollarga o'chroq, "yuradiganlar" toifasidan ekan deb, yana boshqasi "qo'rkoq odam" sifatida tushunishi mumkin. Aslida esa so'zlovchi tomonidan "Rayis buva xo'rozda!" iborasi "Rayis buvaning ko'pincha ayollar brigadasi bilan ishlaydigan odam" ma'nosida aytilgan edi. Ko'rindiki, yuqoridagi yanglish tushunchalar birgina kinoyaomuz g'alati ohangda aytilgan "Haaa" ifodasi sababli yuzaga kelayapti.

Aytish joizki, kinoya ohangi g'oyatda katta emotsional xususiyatga ega. Bu esa pragmatik vaziyatni yuzaga keltirishini inkor etib bo'lmaydi. Fikrimiz dalili uchun quyidagi misolga murojaat qilaylik:

Ichki eshikdan Qorako'z begin chiqib keldi. Kichik jussali bu yoshjuvon tepada yonayotgan qandil yorug'ida behad chiroyli ko'rindi. U katta beginlarga uyalibgina salom berdi-da, hazratni uyg'otishga jur'at etolmaganini aytdi.

– Hazratimni müncha qattiq uxlatibsiz, endi uyg'otish nechun ilkingizdan kelmaydir? – dedi Fotima Sulton begin kinoya bilan (P.Qodirov. Yulduzli tunlar).

Keltirilgan matndan ko'rindiki, berilgan kinoya orqali Qorako'z beginning yoshligi, go'zalligi, xusan, uyalib gapirishi uning eng suykli xotin ekaligiga, bu esa Fotima Sultonning rashkini qo'zg'atganiga ishora qilmoqda.

Aytish joizki, deyksis hodisasi faqatgina yuzma-yuz muloqot jarayonida shakllanadi. Bu esa uning kontekst qurshovida yaqqol namoyon bo'lishini yana bir bor isbotlaydi.

Umuman olganda, deyksis hodisasi haqida gapirar ekanmiz, deyktiklar (deictics), ko'rsatuvchilar (indexicals) hamda shifterlar (shifters) haqida so'z yuritishga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, deyktik kategoriyalar deb yuqorida ko'rib chiqilgan ko'rsatish turlariga, ya'ni shaxs, makon va zamon hamda fazoviy va temporal ko'rsatishlariga (yaqin, uzoq) va nihoyat, kuzatuvchining potensial mavjudligiga aytildi.

Shunday qilib, atrofimizdagi dunyo shaxsiy, makon va zamon koordinatalari orqali aniqlanadi. Deyksis ta'limotining asosiy tushunchasi ko'rsatish tushunchasidir.

Xulosa

Nutq jarayonida noverbal vositalarning pragmatik xususiyatlari o'rganish jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O'z nutqi orqali inson jamiyatda ma'lum axborotni qabul qilib oladi va shu bilan birga aynan nutq orqali ma'lum axborotni uzatadi. Ana shu jarayonda nutq ta'sirchanligini oshirish uchun noverbal vositalar maydonga chiqadi. O'z navbatida, noverbal vositalar til belgilarining nutqda namoyon bo'lishida asosiy ko'makchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Aynan noverbal vositalarga nutq jarayonida pragmatik jarayonni yuzaga keltirishda asosiy omillardan biri sifatida qaraladi.

2. Nutq aktlarida so'zlovchining psixologik holati uning vaziyatga munosabatini aks ettiradi. Aynan deyktik vositalar, imo-ishoralar xohish, ishontirish, afsuslanish kabi holatlarga qo'shimcha ta'sir kuchini yuklaydi.

3. Bir psixologik holatning ifodasi nutqiy aktlarning yanada yaqqol ko'zgusi sifatida xizmat qila oladi. Bu esa o'z navbatida turli illokutiv aktlarni o'zida qamrab oladi: ishontirish – dekloratsiya, tushuntirish, ta'kidni; maqsad – va'da, qasamyodni; po'pisa – buyruq, istak va h. k.larni ifodalashi mumkin.

4. So'zlovchi o'z nutqiy jarayonida ishlatajigan imo-ishoralar nutqning yoki uzatilayotgan axborotning emotsiyonalligini oshirishga xizmat qiladi. Emotsiyalar esa adresatning ham, adresantning ham o'zaro pragmatik munosabatlariga ijobiy ta'sir etadi va so'zlovchining o'z nutqiga bo'lgan munosabatini aks ettirishga yordam beradi. Natijada muvaffaqiyatli illokutiv akt yuzaga chiqadi.

5. Ayrim madaniyatlarda, xususan, rus, fransuz va yapon madaniyatida kontekstning o'rni juda katta bo'lib, ma'lum hollarda aytilganlarning ma'nosi teskarisiga o'zgarishi mumkin. Shuning uchun bunda noverbal aloqa omillari alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

6. Imo-ishora-ramzlardan foydalanish eng ko'p tushumovchiliklarga sabab bo'ladi. Bunday imo-ishoralar ko'pincha suhabatdosh tomonidan aytilgan tilni bilmaganlarida ishlatalidi, ammo ayrimlar imo-ishoralarning ma'nosi hamma joyda bir xil deb hisoblab, o'zlarini tushuntirishga harakat qilishadi. Bu esa, chuqur anglashilmovchilik, kulgili bir holga olib keladi, va ba'zan noqulay pragmatik vaziyatlarni yuzaga keltiradi.

7. Har qanday madaniyatda nosamimiylit imo-ishoralar ko'pincha chap qo'l bilan bog'liq. O'ng qo'l kerakli narsani qilsa, chap qo'l aksariyat hollarda egasining yashirin his-tuyg'ularini berib, xohlagan narsani qiladi. Shuning uchun, agar suhabatdosh

chap qo'li bilan imo-ishora qilsa, u nimani o'ylayotganini aytmasligi yoki bo'layotgan voqealarga salbiy munosabatda bo'lishi ehtimoli yuqoridir.

8. Nutqda ifodalanyotgan har bir axborot makonga va zamonga tayangan holda ifodalanadi. Avvalo, aloqa va axborot uzatish vositasi sifatida tilning bu funksiyasining asosiy xususiyati deyksis hisoblanadi.

9. Deyksis hodisasi faqatgina yuzma-yuz muloqot jarayonida shakllanadi. Bu esa uning kontekst qurshovida yaqqol namoyon bo'lishini yana bir bor isbotlaydi.

10. Kommunikativ faoliyat uchun makon va zamon hodisalari muhim ahamiyatga ega. Har bir voqeа tinglovchi tomonidan makon va zamonda anglashiladi. Tinglovchi muayyan voqeа-hodisani qanday makonda va qay zamonda sodir bo'lganligini bilishga harakat qiladi. Bu esa bevosita pragmatik jarayon bilan bog'liq bo'ladi hamda makon va zamon deyksisida o'rganiladi.

Adabiyotlar

- Austin, J. 1962. *How to do things with words*. Oxford University Press.
- Hakimov, M. 2013. *O'zbek pragmalingvistikasi asoslari*. Toshkent.
- Ko'chiboyev, A. 2015. *Matn pragmatikasi*. Samarqand.
- Mo'minov S., Rasulov Q. 2007. "Komunikantlarning ijtimoiy roli va nutqiy muloqot haqida". *Uslubshunoslik va frazeologiyaning dolzarb muammolari*, 70-72. Samarqand: SamDU.
- Мирсанов, Ф. 2019. *Аспектуаллик ва тэмпораллик мазмунни ифодаси-нинг когнитивпрагматик асослари (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида)*. Филол фан док дисс... Тошкент.
- Morris, Charles William. 1970. *The Pragmatic Movement in American Philosophy Hardcover*. New York: George Brazille.
- Qodiriу, Abdulla. 2018. *O'tkan kunlar*. Toshkent: Sharq.
- Qodirov, Pirimqul. 2015. *Yulduzli tunlar*. Toshkent: Yangi asr avlodи.
- Qodirov, Pirimqul. 2018. *Humoyun va Akbar*. Toshkent: Sharq.
- Рахимов, С. 1989. *Речевая коммуникация и проблема дейксиса в разно-системных языках*. Ташкент: Фан.
- Сафаров, Ш. 2008. *Прагмалингвистика*. Ташкент: Фан.
- Тоирова, Г. 2017. *Ўзбек нутқий мулоқотида системавийлик ва инфор-мативлик*. Филол фан б. фалсафа док дисс... (PhD). Тошкент.
- Хожалиев, И. 2001. "Коммуникатив имконият структураси". *Ўзбек тили ва адабиёти* 6: 32-36. Тошкент.
- <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-69164-1.html?page=3>.
- <http://www.nvtc.ee/e-oppe/Tint/tunets>.

Pragmatic Features of Non-Verbal Means in the Speech Process

Gulrukha Hasanova¹

Abstract

Human speech will be closely connected with his consciousness, worldview, ideology. Via his speech, a person receives certain information and at the same time transmits certain information via the same speech. In this process, nonverbal means for increasing speech sensitivity will come out in the field. In turn, they serve as the main auxiliary means in the manifestation of language signs. It is worth noting that exactly nonverbal means is considered as one of the main factors in the occurrence of the pragmatic process in the speech process. In addition, pragmatic information can be expressed nonverbally through successful communication. The role of nonverbal means is determined by the communication context, i.e., the meaning of the sentence, when, where and by whom it is said. These happenings, will be inextricably linked with the concept of context. Context is an important part of any verbal communication, which provides successful communication. This, in turn, leads to a pragmatic situation. Opponent, every information produced in speech is expressed based on space and time. Looking into the language, specifications, it should be primarily noted that the serves as a means of communication and information transmission.

Key words: *nonverbal tools, pragmatics, gestures, speech act, context, deixis, communication, cultural relations.*

References

- Austin, J. 1962. *How to do things with words*. Oxford University Press.
Hakimov, M. 2013. *O'zbek pragmalingvistikasi asoslari*. Toshkent.
Kochiboev, A. 2015. Matn pragmatikasi. Samarcand.
Muminov S., Rasulov Q. 2007. "Komunikantlarning ijtimoiy roli va nutqiy muloqot haqida". *Uslubshunoslik va frazeologiyaning dolzARB muammolari*, 70-72. Samarcand: SamDU.
Mirsanov, G. 2019. *Aspektuallik va temporallik mazmuni ifodasining*

¹Gulrukha K. Hasanova – Independent Researcher, Samarkand Veterinary Medical Institute.

E-mail: gulruh_88@mail.ru

ORCID ID: 0000-0003-4650-4549

For citation: Hasanova, G.K. 2021. "Pragmatic Features of Non-Verbal Means in the Speech Process". *Uzbekistan: Language and Culture* 1: 21–40.

kognitivpragmatik asoslari (ingliz va uzbek tillari misolida). Filol fan dok diss... Toshkent.

Morris, Charles William. 1970. *The Pragmatic Movement in American Philosophy Hardcover*. New York: George Brazille.

Qodiriy, Abdulla. 2018. *O'tkan kunlar*. Toshkent: Sharq.

Qodirov, Pirimqul. 2015. *Yulduzli tunlar*. Toshkent: Yangi asr avlod.

Qodirov, Pirimqul. 2018. *Humoyun va Akbar*. Toshkent: Sharq.

Rahimov, S. 1989. *Rechevaja kommunikacija i problema dejksisa v raznosistemnyh jazykah*. Tashkent: Fan.

Safarov, Sh. 2008. *Pragmalingvistika*. Toshkent: Fan.

Toirova, G. 2017. *Uzbek nutqij muloqotida sistemavijlik va informativlik*. Filol fan b. falsafa dok diss... (PhD). Toshkent.

Hozhaliev, I. 2001. "Komunikativ imkonijat strukturasi". *Uzbek tili va adabijoti* 6: 32-36. Toshkent.

<https://uz.denemetr.com/docs/768/index-69164-1.html?page=3>.

<http://www.nvtc.ee/e-oppe/Tint/tunets>.